O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 6 - mart 136-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash hamda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “Yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

2024-yil 1-martdan boshlab alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste’dodli va iqtidorli yoshlar Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi qarori bilan “Yoshlar balansi” asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat

ishtirokidagi korxona va tashkilotlar hamda oliy ta’lim tashkilotlari rahbarlariga biriktirilganligi,

Yoshlarning salohiyati, iste’dodi va tashabbuslarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish maqsadida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida:

2024-yil 1-martdan boshlab mahalla, ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlar tizimida mukofot jamg‘armasi 600 million so‘m miqdorida xorijiy tillar *(“Ibrat farzandlari”)* bo‘yicha tanlovlar, kibersport musobaqalari va “Zakovat” intellektual o‘yinlari tashkil etilishi;

Yoshlar ishlari agentligi va mahalliy hokimliklar tomonidan kasblar tanlovida g‘olib bo‘lgan yoshlarni o‘z hududlarida jihozlangan ustaxonalar bilan “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ta’minlash amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi;

Yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish maqsadida:

a) oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida **40 foizi** yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilishi;

b) 2024-yil 1-iyundan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi **“Yosh tadbirkor”** tanlovlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi;

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tanlov asosida **“mahalla - tuman - viloyat - respublika” bosqichlarida** yoshlarning istiqbolli biznes loyiha va g‘oyalari saralanishi bunda, **nogironligi bo‘lgan yosh tadbirkorlarning loyiha va g‘oyalariga** alohida e’tibor qaratilishi;

respublika bosqichida saralashdan o‘tgan har bir loyihaga bazaviy hisoblash miqdorining **1 000 baravarigacha** miqdordagi imtiyozli kreditlar ajratilishi;

g‘olib bo‘lgan biznes loyiha va g‘oyalar egalari Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan **xorijiy davlatlarga malaka oshirishga** yuborilishi;

2024-yil 1-martdan boshlab “**Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi**” dasturi joriy etilishi;

2024-yil 1-martdan boshlab “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘larini yoshlarni **chet tillari va kasb-hunarga o‘qitish maqsadlariga yo‘naltirish** amaliyoti yo‘lga qo‘yilganligi;

2024-yil 1-maydan boshlab fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun yangi majburiy to‘lovlar va yig‘imlarni faqatgina qonunda belgilash amaliyoti kiritilishi;

Quyidagilar:

a) 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining **1 ta**dan tumanida (shahrida) sinov tariqasida **“Mening maktabim”** loyihasi amalga oshirilishi hamda buning doirasida Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan maktablarga bazaviy hisoblash miqdorining **150 barobarida** mablag‘ ajratilib, ushbu mablag‘ 5–11-sinf o‘quvchilari tanloviga ko‘ra, **elektron doska, kompyuter, sport jihozlari, kitoblar** kabi maktablar uchun zarur tovarlarga sarflanishi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari **direktorlarini menejerlik bo‘yicha sertifikatsiyalash tizimi** joriy etilishi, bunda **direktorlarga malakaviy talablar aniq belgilanib,** ular **har besh yilda bir marotaba attestatsiyadan** o‘tkazilishi;

b) 2025-yil 1-yanvardan boshlab Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida **ona tili va adabiyot** hamda **tarix** fanlari bo‘yicha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining milliy baholash tizimida olingan tegishli darajadagi sertifikatga ega bo‘lgan va ushbu fanlardan **dars beruvchi pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida har oylik qo‘shimcha ustama to‘lanishi** belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Keng jamoatchilik bilan muhokamalarda bildirilgan takliflar asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida quyidagilar:

2024-yilga mo‘ljallangan yo‘nalishlar kesimidagi amaliy tadbirlar rejalari **1 - 5-ilovalarga**;

2024-yilda yo‘nalishlar kesimida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxatlari **6 - 10-ilovalarga**;

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini tashkil etish va nazoratini ta’minlash bo‘yicha viloyat Ishchi guruhi **11-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Yoshlar ishlari agentiligi viloyat boshqarmasi (G‘aniyev), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Ro‘zaliyev), shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda **kasblar tanlovida** g‘olib bo‘lgan yoshlarni o‘z hududlarida **jihozlangan ustaxonalar** bilan “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ta’minlash amaliyotini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

5. Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi (Ziyavitdinov), Yoshlar ishlari agentiligi viloyat boshqarmasi (G‘aniyev), Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy boshqarmasi (Gafurov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, tegishli mas’ullar shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda **2024-yil 1-martdan boshlab** “Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi” dasturini amalga oshirishda:

mahallalarda yoshlar yetakchilari tomonidan mahalla faollari ishtirokida axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasiga qiziquvchi yoshlar aniqlanib, ularni ingliz va boshqa xorijiy tillarga o‘qitish hamda sertifikatlar olishini tashkil etish, sertifikat olgan yoshlar to‘g‘risida ma’lumotlarni Raqamli texnologiyalar vazirligining maxsus axborot tizimiga kiritib borish amaliyotini joriy qilish;

Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy boshqarmasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi tomonidan maxsus axborot tizimiga kiritilgan yoshlarni IT sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarga yo‘naltirish va ishga joylashtirishga ko‘maklashish choralarini ko‘rsin.

6. Maktab va maktabgacha ta’lim boshqarmasi (Dolimov) **bir hafta muddatda** 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab sinov tariqasida “Mening maktabim” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha 1 ta maktab taklifini viloyat hokimiga kiritsin.

Loyiha doirasida Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan maktablarga bazaviy hisoblash miqdorining 150 barobarida mablag‘ ajratilib, ushbu mablag‘ 5 - 11-sinf o‘quvchilari tanloviga ko‘ra, elektron doska, kompyuter, sport jihozlari, kitoblar kabi maktab uchun zarur tovarlarga sarflanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

7. Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (Tuxtaqulov), tegishli mas’ullar bilan birgalikda **joriy yil yakuniga qadar** ehtiyojdan kelib chiqib, viloyat markazida kamida bitta og‘ir gematologik, onkologik va klinik immunologik kasalliklari bor bemorlarga palliativ yordam ko‘rsatuvchi xospislar

tashkil etish choralarini ko‘rsin.

8. Viloyat Ishchi guruhi (Sirojitdinov, Isaqov, Mamajonov, Tursunov, Axmedov, Kavlonova, Kuldashev) “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida nazarda tutilgan Farg‘ona viloyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha komissiyalar bilan hamkorlikda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari, nodavlat notijorat tashkilotlarining Davlat dasturida belgilangan vazifalarni belgilangan muddatlarda sifatli amalga oshirilishini doimiy nazorat qilib, o‘z vaqtida va to‘liq ijro etilishini ta’minlasin.

9. Davlat dasturi bajarilishini tahlil qilish hamda muvofiqlashtirib borish maqsadida viloyat hokimligi huzurida Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Markaziy bank, Soliq, Adliya, Investitsiyalar, sanoat va savdo, Sog‘liqni saqlash, Maktabgacha va maktab ta’limi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi viloyat boshqarmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi boshqarmasi hamda “Yuksalish” umummilliy harakati viloyat bo‘limlarining bir nafardan malakali xodimlarini jalb etgan holda, Monitoring guruhi tashkil etilsin;

Monitoring guruhi Davlat dasturi amalga oshirilishining borishi to‘g‘risidagi axborotni har oyda umumlashtirish hamda yakunlarini aniq ko‘rsatkichlar va erishilgan ijobiy o‘zgarishlarni, tahliliy axborot ko‘rinishida aks ettirgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi va viloyat hokimiga kiritib borilishini ta’minlasin.

10. Shahar va tuman hokimliklari:

uch kun muddatda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida nazarda tutilgan ustuvor yo‘nalishlarda belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va so‘zsiz ijro etilishini ta’minlash, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid hududiy dasturlarini ishlab chiqish yuzasidan zaruriy chora-tadbirlarni belgilasin va o‘zlarining tegishli qarorlari bilan tasdiqlasin;

hududiy dasturga kiritilgan tadbirlar to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etsin;

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasida nazarda tutilgan ustuvor yo‘nalishlarni hamda hududiy dasturning bajarilishi to‘g‘risidagi umumlashtirilgan ma’lumotlarni **har oyning 25 sanasiga qadar** viloyat hokimligi huzurida tashkil etilgan Monitoring guruhiga taqdim etib borsin.

11. Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati shahar va tumanlar Kengashlari kotibiyatlari bilan birgalikda:

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari o‘z hududlarida Davlat dasturi ijrosini samarali, qat’iy tartib-intizom asosida tashkil etib, **o‘n kun muddatda** har bir tuman, shahar va mahalla kesimida amaliy chora-tadbirlarni belgilasin hamda **keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida muntazam ravishda** mas’ul shaxslarning hisobotini eshitib borsin;

siyosiy partiyalarning viloyat Kengashi raislari hamda xalq deputatlari shahar va tuman Kengashlari raislari mahalliy Kengashlar deputatlari tomonidan dasturda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan muntazam o‘rganishlarni amalga oshirish, o‘rganish natijalari bo‘yicha doimiy komissiyalar yig‘ilishlarida muhokamalar o‘tkazib borish, belgilangan vazifalar ijrosiga mas’ul bo‘lgan rahbarlarning hisobotlarini eshitib borish tizimini joriy etsin hamda bu borada boshqarma, tashkilot va hokimliklar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqsin.

12. Viloyat hokimligi Axborot-tahlil guruhi (Qo‘chqarov) har oyda kamida bir marta hududiy dasturning bajarilishi yuzasidan tahliliy ma’lumotlarni viloyat hokimi huzurida o‘tkaziladigan “Hokimlik soati” muhokamalariga kiritib borsin.

13. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Djumabayev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi (Xalimbekov), viloyat teleradiokompaniyasi (Obidjonov), “Yangi Farg‘ona” va “Novaya Fergana” gazetalari tahririyati bilan birgalikda muntazam ravishda:

Davlat dasturining maqsad va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan internet axborot tarmog‘ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka tushuntirilishini;

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi va Davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning borishi va natijalari to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma’lumotlarni muntazam ravishda aholiga yetkazib borilishini ta’minlasin.

14. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 6-martdagi
136-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona vilyatida “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan

AMALIY TADBIRLAR REJASI

T/r	Res bandi	Vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ullar
I. HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISHI UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH						
1-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash						
1.	**1**	Maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini **89,9 foizga** yetkazish.	**1. 221 ta** davlat-xususiy sheriklik asosidagi, shu jumladan oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish. **2.** Investitsiya dasturi doirasida **1 ta** maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish va **8 ta** rekonstruksiya qilish orqali **1380 ta** qo‘shimcha yangi quvvatlar yaratish. **3.** 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi bilan qamrov darajasini **93 foizga** yetkazish.	2024-yil yakuniga qadar	Davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov),Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev)
2.	**2**	Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter guruhlarini tashkil etish.	**9 ta** davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida zamonaviy ta’lim planshetlari va sensorli ekranli interaktiv doskalardan iborat kompyuter guruhlarini tashkil etish uchun texnikalar xarid qilish.	2024-yil yakuniga qadar	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga respublika byudjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov),Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev)
2-maqsad: Umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish						

3.	**3**	Yangi maktablarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish hamda ularda zarur shart-sharoitlarni yaratish.	**41 ta** maktabni rekonstruksiya qilish, 8 ta mukammal ta’mirlash va **3 ta**maktabni yangidan barpo etish orqali **15,4 ming** o‘quvchi o‘rnini yaratish.	2024 yil yakuniga qadar	Respublika byudjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	**Viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Isaqov,** **Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (L.Pozilov), Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), shahar va tuman hokimliklari
4.	**4**	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini mebel, o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalari, sport anjomlari va texnik vositalar bilan ta’minlash.	**1.** Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini birlamchi sport jihozlari va milliy musiqa cholg‘u asboblari bilan ta’minlash bo‘yicha manzilli dasturni ishlab chiqish va tasdiqlash. **2.** Tasdiqlangan dasturga asosan birlamchi sport jihozlari va milliy musiqa cholg‘u asboblarini belgilangan tartibda xarid qilish. **3**. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalarini belgilangan tartibda xarid qilish.	2024-yil yakuniga qadar 2024-yil mart 2024-yil avgust	Respublika byudjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), shahar va tuman hokimliklari

5.	**5**	Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi umumta’lim maktablarni **toza ichimlik suvi bilan ta’minlash** hamda umumta’lim maktablarining sanitariya-gigiyena infratuzilmasini bosqichma-bosqich ta’mirlash.	**1.** Mahalliy hokimliklar tomonidan toza ichimlik suvi bilan ta’minlanmagan hamda ta’mirtalab sanitariya-gigiyena infratuzilmasi mavjud umumta’lim maktablarini qayta xatlovdan o‘tkazish. **2.** Xatlov natijasi asosida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va unga asosan zarur bo‘lgan mablag‘larni ajratish.	2024-yil mart 2024-yil aprel	Respublika va mahalliy byudjet mablag‘lari	**Viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Isaqov,** “Farg‘ona suv ta’minoti” MCHJ (Yuldashev), Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (L.Pozilov), Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), shahar va tuman hokimliklari
6.	**7**	Maktablarda o‘quv-laboratoriya xonalarini zarur o‘quv jihozlari bilan ta’minlash darajasini oshirish.	**1.** Davlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining o‘quv-laboratoriya xonalarini o‘quv jihozlari bilan ta’minlanganlik holatini xatlovdan o‘tkazish. **2.** O‘rganishlar natijasiga ko‘ra, ularni zarur o‘quv jihozlari bilan to‘liq ta’minlash yuzasidan takliflarni shakllantirish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil may 2024-yil iyul	–	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), shahar va tuman hokimliklari
3-maqsad: Umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish						
7.		Umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga 32 nafar **xorijiy til egalari – mutaxassislar**inijalb qilish.	1. 2024-yilda xorijiy tillarni o‘qitish darajasi past bo‘lgan umumta’lim maktablarini manzilli ro‘yxatini shakllantirish. 2. 2024-yilda 32 nafar “til egalari” xorijiy mutaxassislarni jalb etish.	2024-yil	-	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov)
8.	**9**	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish hamda ikkinchi xorijiy til va kasbni o‘rgatishni kengaytirish.	**1.** 2023-2024 o‘quv yili yakunida respublika miqyosida **36 ta** umumta’lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish. **2.** Tahlillar natijasida yangi tartibni takomillashtirish va 2024-2025 o‘quv yilidan boshlab yangi baholash tizimi joriy etiladigan maktablar sonini **180 taga** yetkazish.	2024-yil iyun 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab	Respublika va mahalliy byudjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), shahar va tuman hokimliklari

4-maqsad: Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish						
9.	**10**	Pedagog kadrlar malakasini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish.	1. “El-yurt umidi” jamg‘armasi ko‘magida Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi tizimida faoliyat olib borayotgan 8 nafar xodimlarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirishga yuborish rejasini ishlab chiqish. 2. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari xodimlarini **16 ming nafar** xodimlarni uzluksiz malakasini oshirib borish. 3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish.	2024-yil	“El-yurt umidi” jamg‘armasi	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), “El-yurt umidi” jamg‘armasi
5-maqsad: Umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish						
10.	**13**	Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari **qamrovini** kengaytirish.	**1.** Nodavlat umumta’lim tashkilotlari sonini **95 taga** yetkazish. **2.** Nodavlat umumta’lim tashkilotlari faoliyatini tahlil qilib borish. **3**. Nodavlat ta’lim muassasalari tarmog‘i mavjud bo‘lmagan tuman, shaharlar (*Qo‘shtepa, Yozyovon va So‘x tumanlarida*) nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish	2024-yil yakuniga qadar	Respublika byudjetidan ajratilgan mablag‘lar	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), shahar va tuman hokimliklari
11.		Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun **8,4 mlrd so‘m** imtiyozli kreditlar ajratish.	1. Tashabbuskor tadbirkorlar ro‘yxatini shakllantirish, ularning loyiha takliflarini o‘rganish. 2. Tarmoq jadvallarini ishlab chiqish, shu asosida belgilangan muddatlarda kredit mablag‘larini ajratish va loyihani foydalanishga topshirilishini ta’minlash.	2024-yil	Tadbirkorlar va imtiyozli kredit mablag‘lar hisobiga	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), Markaziy bank bosh boshqarmaschi (Sh.Do‘saliyev)
6-maqsad: Professional ta’lim tizimini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish						

12.	**14**	Professional ta’lim muassasalarining pedagog kadrlari **tarkibiy sifatini yaxshilash**, ularning malakasini ilg‘or xorijiy tajriba asosida oshirish.	**1.** Xorijiy tajribalar asosida malaka oshirish dasturlarini to‘liq yangilash va masofaviy yoki aralash shakllardagi malaka oshirish kurslariga moslashtirish hamda elektron platformaga joylashtirish. **2.** Pedagog kadrlarning malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlari asosida pedagog kadrlarni malaka oshirish kurslari va metodik seminarlarga jalb etish. **3.** Professional ta’limni rivojlantirish instituti malaka oshirish kurslariga **kamida 5 nafar** xorijiy mutaxassislarni jalb qilish. **4.** Pedagog kadrlar faoliyatini baholash va yuqori natijalarni qayd etgan pedagoglar malaka toifasini oshirish hamda pedagoglar sifat tarkibini 30 foizga yetkazish.	2024-yil noyabr	–	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Z.Yunusov), Viloyat oliy ta’lim muassasalari
13.		Professional ta’lim muassasalariga **qo‘shimcha kasblar bo‘yicha** 27 ta **qisqa muddatli o‘quv kurslarini** tashkil qilish.	**1.** Professional ta’lim muassasalarda malaka talab etilmaydigan kasblar bo‘yicha qisqa o‘quv kurslari bo‘yicha kadrlar tayyorlashda targ‘ibot ishlarini olib borish. **2.** Yirik korxona va tashkilotlardagi nomutaxassis kadrlarni ish joyidan ajralmagan holda qisqa o‘quv kurslariga jalb etish. **3.** Korxonalarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kasblar ochish choralarini ko‘rish hamda korxonalarda o‘quv xonalar tashkil etish.	2024-yil dekabr	-	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Z.Yunusov), Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov)
8-maqsad: Oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash						

14.	**22**	Talabalarga qulay shart-sharoitlar yaratish uchun oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash.	Oliy ta’lim muassasalarida talabalar turar joylarini qurish bo‘yicha bo‘yicha loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish. 2024-yil yakuniga qadar oliy ta’lim muassasalarida talabalar turar joylarini yaratish.	2024 yil dekabr	Tadbirkorlar mablag‘lari hisobidan *(davlat-xususiy sheriklik),* Davlat byudjetida mazkur maqsadlarga ajratilgan mablag‘lar, oliy ta’lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag‘lari	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Viloyat oliy ta’lim muassasalari
10-maqsad: Iqtisodiyotning eng tez o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxona – oliygoh – ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish						
15.	**26**	Joriy yilda ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlariga ajratilgan mablag‘larga nisbatan sotilgan innovatsion mahsulotlar hajmini **10 foizga** yetkazish.	***1.*** *Tarmoq tashkilotlarining innovatsion mahsulotlarga bo‘lgan talabini tahlil qilish.* ***2.*** *Tahlil natijalariga ko‘ra innovatsion ishlanmalar taqdimotlarini tashkil etish.* **3.** Tayyor innovatsion mahsulotlar ko‘rgazmalarini tashkil etish hamda sotuv shartnomalarini imzolash.	*2024-yil aprel* *2024-yil avgust* 2024-yil noyabr	Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Z.Yunusov),
16.	**27**	Innovatsion faoliyat infratuzilma subyektlari (texnologik parklar, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion klasterlar, venchur fondlar, biznes-inkubatorlar va akselerator) sonini jami **55 taga** yetkazish.	**1.** Hududlarda tashkil etilgan yoshlar texnoparklari faoliyatini takomillashtirish uchun xorijiy tajribani o‘rganish. **2.** Yoshlar texnoparklarida biznes akselerator dasturlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish. **3.** Yoshlar texnoparklarida InnoX biznes inkubatorlarini tashkil qilish.	*2024-yil aprel* *2024-yil iyun* *2024-yil* noyabr	tashabbuskorlar mablag‘lari	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Z.Yunusov)

17.	**28**	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish loyihalari asosida ilmiy tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlari o‘rasida tuzilgan shartnomalarni **280 taga** yetkazish.	***1.*** *Tijoratlashtirish loyihalarini moliyalashtirish tartibini belgilovchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasiga takliflar kiritish.* ***2.*** *Innovatsion hududlarda ilmiy ishlanmalarni joriy etishda istiqbolli tadbirkorlik subyektlarining bazasini shakllantirish.* ***3.*** *Tadbirkorlik subyektlari tomonidan ilmiy tashkilotlar bilan o‘zaro shartnomalarning tuzilishiga erishish.*	2024-yil iyun 2024-yil avgust 2024-yil dekabr	–	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Z.Yunusov)
11-maqsad: Yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash						
18.	**32**	Innovatsion faoliyat sohasidagi **startaplarni akseleratsiya dasturidan o‘tkazish** orqali moliyalashtirishning yangi tizimini joriy etish.	**1.** Innovatsion faoliyat sohasidagi startap loyihalarini moliyalashtirish tartibini belgilovchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasiga takliflar kiritish. **2.** Maxsus platforma orqali kelib tushgan startaplarni akseleratsiyadan o‘tkazish hamda saralash. **3.** Akseleratsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan startap loyihalarni moliyalashtirish.	2024-yil iyul 2024-yil oktyabr 2024-yil dekabr	–	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Z.Yunusov)
13-maqsad: Aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirish						
19.	**34**	Aholi o‘rtasida **surunkali kasalliklarni barvaqt aniqlash** va ular bilan kasallanish holatlarini keskin kamaytirish.	**1. 18-40 yoshli 1 mln 200 ming** nafar aholini profilaktik ko‘rikdan o‘tkazish va natijalariga ko‘ra fuqarolarni sog‘lomlashtirish. **2.** Xavf guruhiga mansub aholini reja asosida flyuorografiya tekshiruvlaridan o‘tkazish.	2024-yil dekabr	–	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov)

20.	**35**	Aholining yuqumli bo‘lmagan **kasalliklarni oldini olish,** ularning xavf omillari, erta aniqlash va davolash bo‘yicha xabardorligini oshirish.	Aholining yuqumli bo‘lmagan kasalliklarni oldini olish bo‘yicha xabardorligini oshirishga qaratilgan **kompleks chora-tadbirlar rejasini** ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda: aholi uchun yuqori viloyat telekanallar orqali TV ko‘rsatuvlarini va boshqa OAVda munozaralarni haftasiga kamida **1-marta muntazam** ravishda namoyish etish va ularning natijalarini tahlil qilish; aholi uchun qisqa ijtimoiy video roliklar yaratish va ularni **yuqori reytingli ko‘rsatuv**, seriallar namoyishi vaqtida efirga uzatish; sog‘lom turmush tarzi haqida **alohida teleko‘rsatuv tayyorlash** va doimiy ravishda efirga uzatish; aholiga sog‘lom turmush tarzi olib borish bo‘yicha doimiy ma’lumot berish uchun **(interaktiv) elektron platforma** (mobil ilova) ishlab chiqish va SSB veb-saytida alohida sahifa ishga tushirish	2024-yil mart	Hisob-kitoblarga ko‘ra	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (I.Halimbekov), Viloyati teleradiokompaniyasi (B.Obidjonov)
14-maqsad: Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish						
21.		**10 ta** poliklinika va oilaviy shifokorlik punktlari **barpo etish.**	1. **Jami 10 ta**, shundan 1 ta oilaviy poliklinika *(Dang‘ara tumani)* va 9 ta oilaviy shifokorlik punktlari *(Bag‘dod 2 ta, Beshariq, O‘zbekiston, Uchko‘prik, Quva, So‘x, Oltiariq, Rishtonda 1 tadan)* qurish bo‘yicha tender savdolari asosida pudratchini aniqlash. 2. Qurilish ishlarini amalga oshirish. 3. Oilaviy poliklinikalarni belgilangan tartibda foydalanishga topshirish.	2024-yil	Respublika va mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan	**Viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Isaqov,** Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (L.Pozilov), Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov), Bag‘dod, Beshariq, O‘zbekiston, Uchko‘prik, Quva, So‘x, Oltiariq va Rishton tuman hokimliklari

22.		**Diabet kasalligi** bor bemorlarni davolash qamrovini **100 foizga** yetkazish.	1. Aholini chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish. 2. Skrining dasturlarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. 3. Diabet kasalligi aniqlangan bemorlarni statsionar sharoitda to‘liq davolash choralarini ko‘rish. 4. Bemorlarni bepul dori vositalari bilan ta’minlash. 5. Poliklinika va oilaviy shifokorlik punktlarida shifokor oldi ko‘rigi va endokrinolog shifokor xonalarini tashkil etish choralarini ko‘rish. 6. Tuman (shahar) ko‘p tarmoqli poliklinikalarida Endokrinologiya bo‘limlarini tashkil etish yuzasidan takliflar kiritish.	doimiy	Hisob-kitoblarga asosan	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov)
23.		**Yurak-qon tomir** kasalligi bor bemorlarni davolashni **100 foizga**yetkazish.	1. Tibbiyotning birlamchi bo‘g‘in muassasalarida aholining ommaviy tibbiy ko‘riklarini o‘tkazish. 2. Yurak-qon tomir kasalligi bor bemorlarni skrining dasturlari bilan qamrab olish. 3. Kasallik aniqlangan bemorlarni ambulator sharoitda zarur dori vositalari bilan ta’minlash, zarur hollarda ularni statsionar davolash. 4. Ehtiyojmand aholini bepul asosda “Enalapril” dori vositasi bilan ta’minlash. 5. Tuman (shahar) ko‘p tarmoqli poliklinikalarida yuqumli bo‘lmagan kasalliklar, shu jumladan yurak-qon tomir kasalliklari va ularning asoratlari profilaktikasi, bemorlarda o‘z kasalligini doimiy nazorat qilib borish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan “**Profilaktika maktablari**”ni tashkil etish. 6. Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida Kardiologiya bo‘limlarini tashkil etish yuzasidan takliflar kiritish.	doimiy	Byudjetdan ajratilgan mablag‘lar va davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi mablag‘lari	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov)

24.		Birlamchi bo‘g‘in muassasalariga **55 foizgaprofilaktika maqsadidagi qatnovlar ulushini** oshirish.	1. Profilaktik tibbiy ko‘riklarga jalb qilinadigan aholi qatlamini belgilab olish va ro‘yxatini shakllantirish. 2. Profilaktik ko‘riklarni kunlik, haftalik, oylik va yillik rejalarini ishlab chiqish. 3. Patranaj hamshiralar tomonidan aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi, profilaktik tibbiy ko‘riklar ahamiyati to‘g‘risida targ‘ibot ishlarini olib borish orqali profilaktik ko‘riklarga jalb qilish.	2024-yil	Ajratilgan byudjet mablag‘lari hisobidan	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov)
15-maqsad: Bolalar o‘rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish						
25.	**38**	Bolalar orasida ommaviy va selektiv skrining turlarini **8 ta**ga yetkazish. Irsiy kasalliklar bilan kasallangan bolalarni dori vositalari, tibbiy buyumlar va shifobaxsh ozuqalar bilan **98.9 foiz** ta’minlash. Bolalarda irsiy kasalliklar bo‘yicha selektiv skrining tekshiruvlar turlarini **4 ta**ga yetkazish.	**1. 3-18 yoshli 1 mln nafar ortiq** bolalarni onkogematologik kasalliklarni erta aniqlash bo‘yicha ommaviy va selektiv skriningdan o‘tkazish. **2. 20 ming nafar** chaqaloqlarni tug‘ma gipotireoz, fenilketonuriya kasalliklarini aniqlash bo‘yicha neonatal skriningdan o‘tkazish. **3.** 6 ta lizosomal (Goshe, Pompe, Fabri, Krabbe, A va V turdagi Nimmana-Pika kasalliklari hamda I tipi) kasalliklarga ko‘rsatma asosida xavf guruhiga kiruvchi **3 ming 500 nafar** chaqaloq va bolalarda har yili selektiv skrining o‘tkazish. **4. 4ta** tug‘ruq muassasalarida yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni eshitish qobiliyatini aniqlash bo‘yicha audioskriningdan o‘tkazish.	Tarmoq rejasiga muvofiq	Davlat byudjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov)
16-maqsad: Onalar va bolalar o‘limini qisqartirish, sog‘lom bolalikni ta’minlash						
Ijro uchun asosiy mas’ul *– Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)*						

26.	**39**	Tug‘ish yoshidagi va homilador ayollarga hamda bolalarga **5 turdagi vitaminlar, yod va foliy kislotasini bepul tarqatish** ishlari samaradorligini oshirish. Tug‘ish yoshidagi ayollarni temir va **foliy kislotasi bilan 95 foiz** ta’minlash.	**Quyidagilar:** **100 ming nafar homilador va 105ming nafar bola emizuvchi ayollarni yod preparati bilan; 650 ming nafar 35 yoshgacha tug‘ish yoshidagi ayollarni temir va foliy kislotasi preparati bilan bepul ta’minlash.**	2024-yil dekabr	Davlat byudjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov)
27.	**40**	Bolalarning sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash orqali **ratsional o‘sishi va rivojlanishi, aqlan barkamol bo‘lib shakllanishini** ta’minlash.	**1. 6-23 oylik** bo‘lgan jami **220 ming** nafar bolani mikronutriyent kukuni bilan bepul ta’minlash. **2. 800 ming nafar 2-10 yoshdagi** bolalarni gelmintoz profilaktikasi bo‘yicha maxsus preparatlar bilan **bepul ta’minlash**. **3.** Mazkur maxsus preparatlarning **yaroqlilik muddati va sifat sertifikatlarini** ularni qabul qiluvchi bolalar **ota-onalariga havola etib borish**.	Doimiy	Davlat byudjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov)
28.	**42**	Boshqariluvchi yuqumli kasalliklar bo‘yicha epidemiologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida **profilaktik emlash tadbirlarini** izchil amalga oshirish.	**654 ming 644** nafar bolani **13turdagi** vaksinalar bilan boshqariluvchi yuqumli kasalliklarga qarshi emlash.	2024-yil yakuniga qadar	Davlat byudjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov)

29.		Tug‘ruq o‘rinlari sonini ko‘paytirish.	1. Viloyat perinatal markaziga bo‘layotgan murojatlarni hisobga olgan holda qo‘shimcha o‘rinlar tashkil qilish. 2. Viloyatdagi tug‘ruq komplekslari va perinatal markazlarida tug‘ruq o‘rinlari sonini **97 taga** oshirish, shundan Farg‘ona shahar tug‘ruq komleksi 23 ta, Oltiariq tuman tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi 20 ta, Qo‘qon va Marg‘ilon tumanlararo perinatal markazlari 10 tadan, Qo‘shtepa tuman tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi 8 ta, Uchko‘prik tuman tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi 6 ta, Beshariq, Bag‘dod, Dang‘ara, Quva tumanlari tibbiyot birlashmalari tug‘ruq bo‘limlari 5 tadan tug‘ruq o‘rinlari tashkil qilish.	2024-yil	Respublika va mahalliy byudjet mablag‘i	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov)
30.		Besh yoshgacha bolalar orasidagi o‘limni oldini olish, 2024-yilda **7,2 promillega** kamaytirish.	1. Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari va oilaviy polkilinikalar tomonidan besh yoshgacha bo‘lgan bolalarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish. 2. Besh yoshgacha bo‘lgan bolalarni reja asosida universal-progressiv patronaj bilan qamrab olish. 3. Bolalarga o‘z vaqtida va sifatli ambulator va statsionar yordam ko‘rsatishni ta’minlash. 4. Milliy emlash kalendariga muvofiq qamrovni 100 foizga yetkazish. 5. Tuman (shahar) ko‘p tarmoqli poliklinikalarida Bolalar bo‘limlarini tashkil etish yuzasidan takliflar kiritish.	doimiy	Respublika va mahalliy byudjet mablag‘i	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov)
17-maqsad: Onkologik kasalliklarni erta aniqlash va o‘lim ko‘rsatkichini kamaytirish						

31.		Xavfli o‘sma kasalliklaridan 1 yilgacha o‘lim ko‘rsatkichini kamaytirish.	1. Aholi orasida onkologik kasalliklar belgi bermasdan oldin, rejali va doimiy ko‘rikdan o‘tish bo‘yicha profilaktika tadbirlarini o‘tkazish. 2. Xavfli o‘sma kasalliklariga chalingan bemorlarning davolash kurslarini ko‘paytirish. 3. Yangi zamonaviy ximioterapevtik, va immun dori vositalari orqali tekshirish jarayonlarini tezlashtirish va o‘lim ko‘rsatkichlarini 5,3 foizgacha kamaytirish.	2024-yil	-	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov)
19-maqsad: Sog‘lom va faol keksalikni ta’minlash						
32.		55 va undan katta yoshdagi aholini har yili **profilaktik ko‘rikdan o‘tkazish va sog‘lomlashtirish.**	1. Keksa yoshdagi aholining salomatligini va faolligini baholash tizimini joriy etish. 2. Katta yoshdagi aholini har yili profilaktik ko‘rikdan o‘tkazish. 3. Surunkali kasalligi aniqlanganda ambulator va statsionar sog‘lomlash-tirishni tashkillashtirish. 4. Yuqumli bo‘lmagan kasallikka chalingan keksa yoshdagi bemorlar va ularning farzandlarini o‘zini o‘zi parvarish qilishga o‘rgatish maqsadida ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarda “Profilaktika maktabi” mashg‘ulotlarini o‘tkazish.	2024-yil	-	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov)
20-maqsad: Aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish						
33.	**47**	Aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish orqali **ortiqcha vaznga ega** va **semizligi** mavjud aholi ulushini kamaytirib borish, shuningdek, **anemiya** va **ichak infeksiyalari** bilan kasallanish darajasini kamaytirish.	**1.** Aholiga o‘z sog‘lig‘i va ovqatlanishini nazorat qilish va to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha mobil ilova yaratish. **2.** Har bir xavf guruhi va kasallik turlari uchun parhez ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish. **3.** Yoshi, tana tuzilishi, turmush tarzi va kasalliklarga moyilligidan kelib chiqib, kattalar va keksalar uchun to‘g‘ri ovqatlanish, sog‘lomlashtirish mashqlari va gigiyena qoidalari to‘plamini yaratish.	2024-yil dekabr 2024-yil iyul 2024-yil dekabr	Davlat byudjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov), Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi (E.Malikov), shahar va tuman hokimliklari

22-maqsad: Professional ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish						
34.	**52**	Ijtimoiy himoya qilish tizimi orqali har bir mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini **to‘liq qamrab olish.**	**1.** Har bir mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini to‘liq qamrab olish maqsadida, sinov tariqasida **“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari** va professional ijtimoiy xodimlar faoliyati yo‘lga qo‘yilayotgan **17 ta** tuman (shaharlar)da oila soni, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlariga asosan ijtimoiy xodimlarni “**hudud - uchastka - mahalla” tamoyili** asosida biriktirilishini ta’minlash. **2.** Og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarga kompleks ijtimoiy yordamlarni ko‘rsatishni keys-menejment tizimi orqali bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish.	2024-yil iyun	–	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Ijtimoiy himoya agentligi viloyat boshqarmasi (E.Asronkulov), Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi (Yu.Gaffurov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi
23-maqsad: Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish						
35.	**57**	Nogironligi bo‘lgan shaxslarga munosib ish o‘rinlari yaratish orqali ular bandligini ta’minlashni **2 barobarga** oshirish.	Nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat bozorida ishtirokini tahlil qilish asosida ularning bandligini ta’minlashga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish uchun **ijtimoiy buyurtma loyihalarini amalga oshirish**.	2024-yil sentyabr	Ijtimoiy himoya milliy agentligi mablag‘lari va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Ijtimoiy himoya agentligi viloyat boshqarmasi (E.Asronkulov), Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Z.Yunusov)

36.	**59**	Nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlat organlari va tashkilotlariga **murojaat qilish huquqlari kafolatini** kuchaytirish.	**1.** Davlat organlari va tashkilotlariga nogironligi bo‘lgan shaxslarning murojaatlar bilan kirishi uchun shart-sharoitlarni yaratish. **2.** Eshitishi va nutqi bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslarning surdotarjimon xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.	2024-yil davomida	Hisob-kitoblarga asosan Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi mablag‘lari	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Ijtimoiy himoya agentligi viloyat boshqarmasi (E.Asronkulov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (L.Pozilov), shahar va tuman hokimliklari
25-maqsad: Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash						
37.	**64**	**Ijtimoiy himoyaga muhtoj** oilalar va ularning farzandlarini qo‘llab-quvvatlash.	316 nafar jarrohlik operatsiyasiga muhtoj xotin-qizlarni sog‘lom hayotga qaytarish choralarini ko‘rish.	2024-yil davomida reja asosida	Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘lar, Ijtimoiy himoya milliy agentligi jamg‘armasi, Sog‘liqni saqlashni rivojlantirish jamg‘armasi, Bolalar fondi, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari	**Viloyat hokimining o‘rinbosari K.Kavlanova** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov), Ijtimoiy himoya agentligi viloyat boshqarmasi (E.Asronkulov), Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (G.Jurayeva), shahar va tuman hokimliklari

38.		Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan turarjoyga muhtoj **152 nafar** xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash.	1. Xotin - qizlar muammolari bilan ishlash tizimini raqamlashtirish, shu jumladan Xotin - qizlar muammolarini o‘rganish va ularni tizimli ravishda hal etish modulini yaratish va amaliyotga tatbiq etish. 2. Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan turar-joyga muhtoj xotin-qizlarni aniqlash va ro‘yxatini shakllantirish. 3. Shakllantirilgan ro‘yxatga asosan 2023-2024-yillarda og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan turar-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash.	yil davomida	Hisob-kitoblarga asosan, Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘lari, Mahalliy byudjet va homiylik asosida	**Viloyat hokimining o‘rinbosari K.Kavlanova** Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (L.Pozilov), shahar va tuman hokimliklari
39.		Davlat tomonidan ehtiyojmand xotin-qizlarga maxsus jarrohlik amaliyotini o‘tkazish qamrovini oshirish.	1. Shahar va tumanlardagi ehtiyojmand xotin-qizlarga maxsus jarrohlik amaliyotini o‘tkazish bo‘yicha manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish. 2. Shakllantirilgan manzilli ro‘yxat asosida Ishchi guruh tuzgan holda o‘rganish. 3. Shakllantirilgan manzilli ro‘yxatga asosan ehtiyojmand xotin-qizlarga maxsus jarrohlik amaliyotini o‘tkazish ishlarini boshlash.	2024-yil yanvar 2024-yil dekabr	-	**Viloyat hokimining o‘rinbosari K.Kavlanova** Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (G.Jurayeva), Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov), Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev)
40.	**66**	Xotin-qizlar **bandligini ta’minlashga** ko‘maklashish, ular o‘rtasida **tadbirkorlikni rivojlantirish**, **kasb-hunarga o‘qitish** va o‘zini o‘zi band qilish.	**1.** Xotin-qizlar bandlik dasturini tasdiqlash. **2.** Dastur doirasida xotin-qizlarning kichik biznes loyihalariga imtiyozli kreditlar ajratish. **3.** Har bir hududda xotin-qizlar hunarmandchilik markazlari va klasterlarini tashkil qilish.	2024-yil mart aniqlangan loyihalar asosida Hamkorlik dasturi asosida	–	**Viloyat hokimining o‘rinbosari K.Kavlanova** Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi (A.Yuldashev), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, “Hunarmand” uyushmasi viloyat boshqarmasi (R.Mirzaaxmedov), shahar va tuman hokimliklari

41.	**71**	Xotin-qizlar **tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash,** xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish.	**1.** Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish. **2.** Ba’zi yo‘nalishlar bo‘yicha ikki oygacha bo‘lgan o‘quv kurslarini tashkil qilish. **3.** Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida xotin-qizlarni bepul va pullik o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish.	2024-yil may 2024-yil iyul 2024-yil avgust	Hisob-kitoblar asosida, ijrochilarning byudjetdan tashqari mablag‘lari	**Viloyat hokimining o‘rinbosari K.Kavlanova** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi (A.Yuldashev), shahar va tuman hokimliklari
42.	**73**	Joylarda xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilgan **tayyor mahsulotlarni sotishga ko‘maklashish**.	**1.** Mahalliy **yirik ishlab chiqaruvchilar** bilan aloqa o‘rnatish. **2.** Xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni **mahalliy va jahon logistika kompaniyalari tomonidan xaridorlarga yetkazib berish tizimini** yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini o‘rganib chiqish. **3.** O‘rganish natijalari bo‘yicha elektron portallar orqali xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni realizatsiya qilinishini tashkil etish. **4.** Xotin-qizlarni ushbu portallar orqali o‘z mahsulotlarini taklif etish ko‘nikmalariga o‘rgatish.	2024-yil 2024-yil mart Muntazam Reja asosida	–	**Viloyat hokimining o‘rinbosarlari N.Mamajonov, K.Kavlanova** Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi (A.Yuldashev), shahar va tuman hokimliklari
26-maqsad: Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash						
43.		Nuroniylarga tizimli ravishda **jismoniy tarbiya va sport** bilan shug‘ullanishlari uchun zarur sharoitlarni yaratib borish, “Nuroniylar maskani” majmualarida va mahallalarda turli **madaniy-ma’rifiy tadbirlari** o‘tkazish.	1. Tuman (shahar)lardagi **“Nuroniylar maskani” majmualari va mahallalarga ta’lim va madaniyat muassasalarini** biriktirish hamda ularda madaniy-ma’rifiy va sport tadbirlarini o‘tkazish. Tadbirlarga nuroniylar va yoshlarni jalb etish. 2. 162 ming nafar nuroniylarni respublika bo‘ylab diqqatga sazovor joylar, xususan tarixiy shaharlar, qadimiy obidalar, ziyoratgohlar va yurtimizning so‘lim go‘shalariga sayohatlar tashkil etish.	yil davomida 2024-yil may-avgust oylari	“Nuroniy” jamg‘armasi mablag‘i	**Viloyat hokimining o‘rinbosari K.Kavlanova** “Nuroniy” jamg‘armasi viloyat bo‘limi (Z.Raxmonov), Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasi (N.Xakimov), shahar va tuman hokimliklari
27-maqsad: Mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirish						

44.	**75**	Kambag‘al oilalar muammolarini hal etish orqali mamlakatda **kambag‘allik darajasini kamaytirish**.	Oilalarni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan **“Individual dasturlar”** doirasida kambag‘allik darajasini **2024-yil yakuni bilan** **10,1 foizdan 9,0 foizga kamaytirish**. Bunda kambag‘al oilalar a’zolarining: **31,8 ming** nafarini doimiy ish o‘rinlariga ishga joylashtirish; **28 ming** nafariga imtiyozli kredit va subsidiya ajratish; **24 ming** nafarini kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish; **236** nafariga oliy ta’lim o‘quv-kontrakt to‘lovlarini qoplab berish (“Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” jamg‘armalari).	2024-yil davomida	Hisob-kitoblarga asosan	**Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (G.Jurayeva), shahar va tuman hokimliklari
28-maqsad: Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish						
45.	**77**	Aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali **ishsiz aholini ishga joylashtirishga** ko‘maklashish.	Bandlik organlarida ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini va natijadorligini oshirish orqali **69,3 ming** nafar aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish.	2024-yil davomida	Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi, Jamoat ishlari jamg‘armasi mablag‘lari, xususiy sektor mablag‘lari	**Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi (A.Yuldashev), Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (G.Jurayeva), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Z.Yunusov), shahar va tuman hokimliklari

46.		Mehnatga layoqatli aholini shu jumladan, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni barqaror va samarali bandligini ta’minlash orqali ishsizlik darajasini **8,5 foizga** tushirish.	1. Bandlik organlarida ko‘rsatilayotgan bandlik sohasidagi xizmatlar sifatini va natijadorligini oshirish choralarini ko‘rish. 2. Bandlik organi xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari va vazifalarini qayta ko‘rib chiqish va ish samaradorligi oshirish choralarini ko‘rish. 3. Bandlik organi va hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, bunda, ko‘rsatilayotgan xizmatlarni mahalla darajasiga tushirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish. 4. Mehnatga layoqatli aholini shu jumladan, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni barqaror va samarali bandligini ta’minlash orqali 2024-yilda ishsizlik darajasini 2023-yilga nisbatan 0,3 foizga qisqartirish.	2024-yil davomida	-	**Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi
47.		Aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay shart - sharoitlar yaratish orqali ishsiz aholini **43,8 ming nafarni** ishga joylashtirishga ko‘maklashish.	1. Korxona va tashkilotlardagi mavjud bo‘sh ish o‘rinlarining ro‘yxatini shakllantirish. 2. Bo‘sh ish o‘rinlariga ish bilan band bo‘lmagan fuqarolarni ishga joylashtirishga ko‘maklashish. 3. Mikromarkazlar tashkil etish, dehqonchilik uchun yer maydonlarini uzoq muddatga ijaraga berish, kasanachilik va hunarmandchilik uchun qulay sharoitlar yaratish orqali aholi bandligini ta’minlash. 4. Ish bilan band bo‘lmagan fuqarolarni ishga qabul qilgan korxona va tashkilotlarga belgilangan tartibda subsidiyalar ajratish choralarini ko‘rish.	2024-yil	Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi	**Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi
29-maqsad: Har bir fuqaroni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish						

48.	**80**	Band bo‘lmagan shaxslar, kambag‘al oilalarning ishsiz a’zolari va yoshlarni amaliy monomarkaz, davlat va nodavlat ta’lim muassasalarida **kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish** orqali ularning **bandligiga ko‘maklashish**.	**1.** Ish bilan band bo‘lmagan kamida **14,1 ming nafar**, shu jumladan, 9,9ming nafar ishsiz xotin-qizlar hamda 4,2ming nafar ishsiz yoshlarni kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish. **2.** Xalqaro standartlar asosida **100 nafar** kasbga o‘qitish markazlari o‘qituvchilarining malakasini oshirish. **3.** Kasb-hunarga o‘qitishda xususiy sektor va “usta-shogird” maktablari ulushini **15 foiz**ga yetkazish choralarini ko‘rish.	2024-yil davomida	Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi, Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi, Kasb-hunarga o‘qitish xarajatlarini moliyalashtirish belgilangan barcha davlat mablag‘lari	**Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Z.Yunusov), Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi (A.Yuldashev), Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (G.Jurayeva), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev), shahar va tuman hokimliklari
30-maqsad: Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o‘qitish tizimini yaratish						
49.		Yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish.	1. Yoshlarga zamonaviy kasblarni egallashda yanada qulaylik yaratish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda, ta’lim muassasalarida, ko‘ngil ochar maskanlarda va savdo do‘konlarida “Ibrat farzandlari” loyihalarini keng targ‘ib qilish hamda loyiha doirasida yoshlarni zamonaviy kasblarni egallashiga ko‘maklashish. 2. Mahallalarda faoliyat olib borayotgan yoshlar yetakchilari orqali, mahallalarda va ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy ximoyaga muxtoj, ishsiz, uyushmagan yoshlarni aniqlash hamda ularni zamonaviy kasblarni egallashi uchun shart-sharoitlar yaratish. 3. Yoshlarni qiziqish va istaklaridan kelib chiqgan holda, yoshlarni yashash joyiga yaqin bo‘lgan o‘quv muassasalari bilan tanishtirish. 4. Zamonaviy kasblarni egallash istagi bo‘lgan 540 nafar yoshlarni, mahallalardagi yoshlar yetakchilari orqali “Yoshlar daftari”ga kiritish orqali ularni zamonaviy kasblar o‘quv kurslariga jalb qilish.	2024-yil 2024-yil yanvar 2024-yil fevral 2024-yil dyekabr	Yoshlar daftari jamg‘armasi mablag‘i	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev), Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov)

31-maqsad: Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish						
50.	**85**	Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish.	Davlat organlari rahbarlari va yoshlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq muloqotini yo‘lga qo‘yish maqsadida “Rahbar va yosh xodimlar”, “Deputat va yoshlar”, “Tadbirkorlar va yoshlar” uchrashuvlarini tashkil etish.	2024-yil iyundan boshlab aniq reja-grafik asosida		**Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi M.Muxidinov** Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati (Sh.Karimov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev), Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi (A.Yuldashev)
51.		**“Ibrat farzandlari”** Youtube platformasi orqali **22 ming 965 nafar** yoshlarning chet tillarni o‘rganishini tashkil etish.	1.Mazkur loyihani yoshlar orasida keng targ‘ib qilish. 2. Yoshlarni platforma orqali chet tillarini o‘rganishlari uchun keng jalb etish.	2024-yil yanvar 2024-yil davomida	Homiylik mablag‘lari hisobidan	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev)
32-maqsad: Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish						
52.	**86**	Yoshlarning **bandligini ta’minlash**.	**14 ming** nafar yoshlarning **bandligini ta’minlash**. Bunda: **ijtimoiy himoyaga muhtoj** va **“og‘ir”** toifadagi yoshlarni **“Yoshlar daftari”**ga kiritish va ularning muammolarini hal etish; **ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlar ko‘rsatish**, jumladan, **subsidiya**, **kompensatsiya** va **moddiy yordam ajratish** choralarini ko‘rish.	2024 yil davomida 2024-yil fevral -aprel 2024-yil davomida	Ijrochilar mablag‘lari	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev), Ijtimoiy himoya agentligi viloyat boshqarmasi (E.Asronkulov)
53.		**1 ming 495 nafar** ishsiz va **1 ming 400 nafar** bitiruvchi yoshlarga zamonaviy kasblarni o‘rgatish.	1. Zamonaviy kasblarni o‘rganish istagida bo‘lgan yoshlar ro‘yxatini shakllantirish. 2. Belgilangan tartibda munosib ish bilan ta’minlanlash choralarini ko‘rish. 3. Har chorakda dastur bajarilishi yuzasidan hisobot berish.	2024-yil davomida	“Yoshlar daftari” jamg‘armalari hisobidan	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev)
33-maqsad: Yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish						

54.	**87**	“**Bir million dasturchi**” loyihasini amalga oshirish orqali **1 ming nafar** iqtidorli yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash.	**1.** “**Bir million dasturchi**” loyihasi doirasida platformaning professional kurslarida yoshlarni ta’lim olishini yo‘lga qo‘yish. **2.** Platformada ta’lim oladigan yoshlar qamrovi bo‘yicha Hududlar kesimida samaradorlik ko‘rsatkichlarini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish. **3.** Platforma imkoniyatlari va undan samarali foydalanish bo‘yicha hududlardagi ta’lim tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda keng targ‘ibot ishlarini amalga oshirish. **4.** Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida eng yaxshi natija ko‘rsatgan yoshlar va ishtirokchilarni munosib rag‘batlantirib borish.	2024-yil davomida 2024-yil mart 2024-yil mart 2024-yil dekabr	Ijrochilar mablag‘lari	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev), Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi (Yu.Gaffurov), shahar va tuman hokimliklari
34-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish						
55.	**88**	Yoshlarni **ommaviy sport tadbirlariga** jalb qilish.	**Mahallalar** va **ta’lim muassasalari**da sport turlari bo‘yicha **ommaviysport musobaqalari qamrovini 700 ming** nafarga yetkazish. Bunda: **mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar** o‘rtasida; **umumiy o‘rta ta’lim** maktab o‘quvchilari o‘rtasida; **professionalta’limmuassasalari** o‘quvchilari o‘rtasida; **oliy ta’lim muassasalari** talabalari o‘rtasida **ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish**. Aholining **yosh toifalari bo‘yicha** barcha hududlarida har yili **jismoniy tayyorgarlik sinovlarini o‘tkazish**.	2024-yil aprel-dekabr 2024-yil davomida	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag‘lar hamda ijrochilar mablag‘lari	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasi (N.Xakimov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev), Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Z.Yunusov), shahar va tuman hokimliklari

56.	**89**	**Sport bilan shug‘ullanishga** jalb qilingan aholi ulushini oshirish.	Aholini sport turlariga **jalb qilish orqali** jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar **qamrovini55 foizdan 70 foizga** yetkazish. Bunda: hududlarda aholining **jismoniy tarbiya** va **ommaviy sport bilan shug‘ullanishi** uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; mahallalarda aholining ommaviy sport bilan shug‘ullanishlari uchun **moddiy-texnika bazasini mustahkamlash**; sport inshootlarini **zamonaviy sport jihozlari** bilan ta’minlash.	2024-yil davomida	Ijrochilar mablag‘lari	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasi (N.Xakimov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev), Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), shahar va tuman hokimliklari
57.	**90**	Mahallalarda **sport maydonchalarini** barpo etish.	Mahallalarda **20 ta sport maydonchalari** ni barpo etish. Bunda: **“Besh tashabbus olimpiadasi”** doirasida g‘olib va sovrindor bo‘lgan hamda hududida **sport infratuzilmasi mavjud bo‘lmagan mahallalar** ro‘yxatini shakllantirish hamda **qurish ishlarini** boshlash; **olis** va **chekka** hududdagi mahallalarda **sport infratuzilmasini rivojlantirish,** shu jumladan **sport maydonchalarini bosqichma-bosqich barpo etish** hamda bu orqali **aholining sport bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish**.	2024-yil davomida	Sport vazirligi mablag‘lari	**Viloyat hokimining o‘rinbosari X.Isaqov,Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasi (N.Xakimov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (L.Pozilov), Ichki ishlar boshqarmasi (A.Ikramov), shahar va tuman hokimliklari
38-maqsad: Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash						

58.	**99**	Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.	Bunda, har bir ta’lim muassasasi va mahallalarda vatanparvarlik, xalq birdamligi, Vatanga muhabbat tuyg‘usini oshirishga qaratilgan **ma’naviy-ma’rifiytadbirlarni** yuqori saviyada o‘tkazib borish.	2024-yil davomida reja-grafikka asosan	Tashkilotlarga ajratilgan mablag‘lar doirasida	**Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamalov** Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi (M.Sulaymonov), Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi (A.Ziyavitdinov), Mudofaa ishlari boshqarmasi (A.Rashidov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev)
59.		**“O‘zbekiston - Vatanim manim!”** shiori ostida ijtimoiy loyiha o‘tkazish	“O‘zbekiston - Vatanim manim!” nomli aholi va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va ta’lim muassasalari hamda mahallalarda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni keng qamrovli tarzda tashkil etish va o‘tkazib borish.	2024-yil davomida chora-tadbirlar dasturga asosan	Ijrochi tashkilotlar mablag‘lari doirasida	**Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamalov**Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi (M.Sulaymonov), Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi (A.Ziyavitdinov), Sharqiy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondonligi(A.Sadikov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev),Maktabgacha va maktab ta’limi viloyat boshqarmasi (Sh.Dolimov), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar viloyat boshqarmasi (Z.Yunusov), Viloyat teleradiokompaniyasi (B.Obidjonov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (I.Halimbekov)

60.		Farg‘ona viloyatidan yetishib chiqqan O‘zbekiston Qahramonlari hamda O‘zbekiston xalq shoirlari va yozuvchilari nomlarini abadiylashtirish, ularning ibratli hayot yo‘llarini yosh avlodga namuna qilib ko‘rsatish badiiy kechalar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish.	Bunda viloyatimizdagi O‘zbekiston Qahramonlari hamda O‘zbekiston xalq shoirlari va yozuvchilari nomlarini abadiylashtirish ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar reja-jadvali ishlab chiqish va turkum tadbirlarni tashkil etib borish.	2024-yil davomida reja-jadvalga asosan	Ijrochi tashkilotlar mablag‘lari doirasida	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi (M.Sulaymonov), Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi (D.Ergasheva),Madaniyat boshqarmasi (J.Tojiboyev),Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi (A.Ziyavitdinov), Maktabgacha va maktab ta’limi viloyat boshqarmasi (Sh.Dolimov), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar viloyat boshqarmasi (Z.Yunusov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (I.Halimbekov)

61.		Mahallalarda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli tashkil etish maqsadida **ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasini** ishlab chiqish.	Viloyatimizdagi mahallalarni **“qizil”, “sariq”** va **“yashil”** toifalarga ajratgan holda **ma’naviy muhit xaritasini** ishlab chiqish va tizimli targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish.	2024-yil davomida ma’naviy muhit xaritasiga asosan	Ijrochi tashkilotlar mablag‘lari doirasida	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi (M.Sulaymonov), Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi (A.Ziyavitdinov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev), Maktabgacha va maktab ta’limi viloyat boshqarmasi (Sh.Dolimov), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar viloyat boshqarmasi (Z.Yunusov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (I.Halimbekov)
62.	**103**	Yoshlar orasida **kitobxonlikni** targ‘ib qilish.	**1.** Yoshlarning bilim olishga va kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish maqsadida **“Kitob – ko‘ngil bulog‘i”** tanlovlarini o‘tkazish. **2. “Kitob – kamolot kaliti”** Respublika kitob ko‘rgazmasini tashkil etish.	2024-yil davomida	Tashabbuskorlar o‘z mablag‘lari	**Viloyat hokimiligi kotibiyati mudiri Sh.Aslonov,** Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi (M.Sulaymonov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev), Maktabgacha va maktab ta’limi viloyat boshqarmasi (Sh.Dolimov), Axborot-kutubxona markazi (A.Shermatova)
41-maqsad: O‘zbek milliy san’atini jahon sahnalarida keng targ‘ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish						

63.	**108**	Madaniyat va san’at sohasida faoliyat yuritayotgan ijodkor yoshlarni saralash, ular uchun ijodiy maydon yaratish hamda **yangi iste’dodlarni kashf etish**.	**1.** Hududlarda ijodkor yoshlar uchun madaniyat va san’at yo‘nalishida **“Yangi O‘zbekiston iste’dodlari” tanlovining Nizomini ishlab chiqish**. **2.** Yangi O‘zbekiston iste’dodlari” tanlovini o‘tkazish. **3.** Tanlov orqali saralab olingan ijodkor yoshlarni davlat tadbirlariga jalb qilish hamda **ularning ijodini ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib qilish**.	2024-yil davomida	Madaniyat vazirligiga ajratilgan mablag‘ doirasida	**Viloyat hokimining o‘rinbosari X.Axmedov** Madaniyat boshqarmasi (J.Tojibayev), Farg‘ona viloyati axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (I.Halimbekov) shahar va tuman hokimliklari
43-maqsad: Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish						
64.	**112**	Yoshlarning **intellektual salohiyatini oshirish** va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish.	Nukus shahri va **viloyatlar** markazida joylashgan madaniyat va istirohat bog‘larida **2 ta**dan zamonaviy **yozgi kinoteatr** va **book-kafelarfaoliyatini, shu jumladan** davlat-xususiy sheriklik asosida **yo‘lga qo‘yish**.	2024-yil davomida	Homiylik va xayriya mablag‘lari, loyiha tashabbuskorlari mablag‘lari	**Viloyat hokimining o‘rinbosari X.Axmedov** Madaniyat boshqarmasi (J.Tojibayev), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev)
65.		Madaniyat markazlarida madaniyat va san’at yo‘nalishidagi **to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish** va to‘garaklar sonini**532 taga** yetkazish.	1. Madaniyat markazlaridagi to‘garaklar faoliyatini o‘rganib chiqish va tahlil qilish. 2. Aholi va yoshlar o‘rtasida madaniyat markazlarida yangi to‘garaklar ochish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazish va ehtiyojdan kelib chiqib yangi, zamonaviy to‘garaklar ochish. 3. Madaniyat markazlarida tashkil etilgan to‘garaklar bo‘yicha targ‘ibot materiallari tayyorlash va ta’lim muassasalarida targ‘ibot ishlarini amalga oshirish.	2024-yil	-	**Viloyat hokimining o‘rinbosari X.Axmedov** Madaniyat boshqarmasi (J.Tojibayev)

66.		**1 ta** madaniyat va san’at muassasalarini **davlat - xususiy sheriklik** asosida tashkil etish.	1. Davlat xususiy sheriklik asosida berilishi mumkin bo‘lgan madaniyat va san’at muassasalari ro‘yxatini shakllantirish. 2. Madaniyat muassasalarini davlat xususiy sheriklik asosida berish bo‘yicha OAV orqali targ‘ibot qilish. 3. Tadbirkorlar o‘rtasida belgilangan bitimlarni imzolash bo‘yicha hujjatlarni Madaniyat vazirligiga taqdim qilish. 4. Madaniyat va san’at muassasalarini davlat-xususiy sheriklikasosida tashkil etish.	2024-yil dekabr	-	**Viloyat hokimining o‘rinbosari X.Axmedov** Madaniyat boshqarmasi (J.Tojibayev)
67.	**113**	Tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish.	**1.** Viloyatning hududlarida ijodkorlarning doimiy ko‘rgazmalarini tashkil qilish. **2.** Haykaltaroshlik san’atini rivojlantirish hamda ushbu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida “**O‘zbekiston Xalqaro haykaltaroshlik simpoziumi**”ni o‘tkazish.	2024-yil davomida 2024-yil avgust	Respublika byudjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida, homiylik xayriya mablag‘lari va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	**Viloyat hokimining o‘rinbosari X.Axmedov** Madaniyat boshqarmasi (J.Tojibayev) Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (B.Jumanov), shahar va tuman hokimliklari

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 6-martdagi
136-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Farg‘ona viloyatida “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan

AMALIY TADBIRLAR REJASI

T/r.	res bandi	Vazifa	Amaliy chora-tadbir	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Hamijrochilar
II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH						
45-maqsad: 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirib, “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish						
1.	**1**	Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash.	2024-yilda yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’atlarini **6,0 foizdan** kam bo‘lmagan darajada ta’minlash. Bunda, sanoat mahsulotlari o‘sishini **7,2 foiz**, bozor xizmatlari – **17,3 foiz**, qishloq xo‘jaligi – **4,1 foiz**, qurilish – **7,8 foiz darajasida** ta’minlash. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi asosiy shartlar: eksport hajmi o‘sishini **150 foiz** darajasida ta’minlash.	2024-yil davomida	–	**Viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov, N.Mamajonov** Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Markaziy bank boshqarmasi (Sh.Do‘saliyev)
2.	**2**	Tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif muvozanatini ta’minlash orqali 2024-yilda yillik inflyatsiya darajasining **9 foizdan** oshmasligini ta’minlash.	**2024-yilda:** **inflyatsiya darajasi 9 foiz** atrofida bo‘lishini ta’minlash maqsadida pul-kredit sharoitlarini 2024-yilda ham nisbatan qat’iy fazada saqlab qolish; inflyatsiya kutilmalarini pasaytirish va ularni inflyatsiyaning **prognoz ko‘rsatkichlari** doirasida jilovlashda **kommunikatsion siyosatni** takomillashtirib borish; asosiy turdagi tovar va xizmatlar narxlarini hududlar bo‘yicha kuzatib borish, ularga ta’sir ko‘rsatgan omillarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.	2024-yil davomida	–	**Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov** Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Markaziy bank boshqarmasi(Sh.Do‘saliyev), shahar va tuman hokimliklari
46-maqsad: Fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish						

3.	**6**	Byudjet jarayonlarining **shaffofligini yanada oshirish choralarini** ko‘rish.	Bunda, quyidagi masalalar bo‘yicha keng jamoatchilik tomonidan ochiq ma’lumotlarni olish imkoniyatini yaratish: byudjet, byudjet jarayoni va uning jamiyatga ko‘rsatadigan ta’siri tahlili; turli darajalardagi va hududlar byudjetlari o‘rtasida daromadlar va xarajatlar taqsimlanishi; soliqlardan hududlar byudjetlariga tushadigan ajratmalar, subvensiyalar va boshqa byudjetlararo transfertlar miqdorlari; davlat byudjetida nazarda tutilgan nafaqalar, pensiyalar miqdorlari.	2024-yil sentyabr	–	**Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov** Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov), Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy boshqarmasi (Yu.Gafurov), shahar va tuman hokimliklari
47-maqsad: Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish						
4.		Yangi turdagi mahsulotlar o‘zlashtirish va mahalliylashtirish darajasini **70 foizga** yetkazish.	1. 130 ta, shu jumladan 52 ta yangi mahsulot turlarini o‘zlashtirish va 78 ta kengaytiriladigan loyihalar doirasida 1,4 trln. so‘mga teng mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta’minlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali mahalliylashtirish darjasini 70,5 foizga yetkazish. 2. Loyihalarni samarali amalga oshirilishini ta’minlash hamda tashabbuskor tadbirkor-larni doimiy qo‘llab-quvvatlash.	2024-yil dekabr doimiy	Tijorat banklari kreditlari, o‘z mablag‘lari	**Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov** Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Markaziy bank bosh boshqarmasi (Sh.Do‘saliyev), shahar va tuman hokimliklari
48-maqsad: Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish						
5.	**11**	Hududlarda mavjud mineral xomashyo resurslaridan samarali foydalanish maqsadida istiqbolli maydonlarda **qimmatbaho**, **rangli** va **noyob metallarga** geologiya-qidiruv ishlarini o‘tkazish.	Nufuzli xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda kamida **2 ta** xorijiy investitsiya loyihasi doirasida kon zaxiralarini baholashda ilg‘or xalqaro standartlarni joriy qilish. Tadbirkorlik subyektlariga qimmatbaho, rangli, noyob metallar hamda noruda kon va uchastkalariga (jami 10 ta) yer qa’ridan foydalanish ruxsatnomalarini shaffof mexanizmlar asosida onlayn auksion orqali taklif etish.	2024-yil dekabr	Xorijiy va mahalliy investitsiyalar	**Viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Isaqov, N.Mamajonov, Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov** Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (A.Saliyev), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish mintaqaviy inspeksiyasi (J.Qo‘chqaraliyev)

6.		Sanoat mahsulotlari hajmini **40,2 trln so‘mga** yetkazish hamda o‘sish sur’atini **105,5** foizga yetkazish. Jami sanoat mahsuloti hajmida hududiy sanoat hajmining ulushini **50,8 foizga** yetkazish.	Dasturlar doirasida qiymati 57 mln. dollarlik 176 ta sanoat loyihalarini amalga oshirish natijasida jami sanoat mahsuloti hajmida hududiy sanoat hajmining ulushini 50,8 foizga yetkazish.	2024-yil dekabr	Tashabbuskorlar mablag‘i, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, xorijiy va bank kreditlari	**Viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov, N.Mamajonov,** Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Markaziy bank boshqarmasi(Sh.Do‘saliyev)
7.		Sanoat tarmoqlarida **20,3 mingta** yuqori daromadli ish o‘rnlari yaratish.	1. **Yirik korxonalarga o‘zlarining kasbga tayyorlash markazlarini** tashkil etishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish. 2. Elektrotexnika, qurilish materiallari, to‘qimachilik kabi sohalarda ilg‘or **muhandislar maktablarini tashkil etish** bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish. 3. Sanoat yo‘nalishida 200 tadan ortiq loyihalarni amalga oshirish orqali yuqori daromadli ish o‘rinlarni yaratish.	2024-yil davomida	**-**	**Viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov, N.Mamajonov,** Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi
49-maqsad: Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish						
8.	**18**	Istiqbolli loyihalarga salohiyatli investorlarni jalb etish va manzilli loyihalarning qo‘shimcha ro‘yxatini shakllantirish.	**1. 120 ta** istiqbolli loyiha bo‘yicha dastlabki hisob-kitoblarni, loyihaoldi hujjatlarini ishlab chiqib, xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlariga taqdimot qilish. **2.** Istiqbolli loyihalar bo‘yicha salohiyatli xorijiy investorlar bilan kelishuvlarga erishish va ularni amalga oshirish bosqichlarini nazarda tutuvchi “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash.	2024-yil aprel 2024-yil 1-iyul	–	**Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov** Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar
9.		Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmini **15,2 foiz** atrofida o‘sishini ta’minlash.	1. Davlat va hududiy investitsiya dasturlari doirasida, xorijiy investitsiya o‘zlashtirish, Davlat - xususiy sheriklik asosida loyiha tashabbuskorlarni aniqlash hamda Xalqaro moliya institutlari va jamg‘armalari mablag‘larini jalb qilish. 2. **15,2 mln.dollar** investitsiya-larni jalb qilishni ta’minlash.	2024-yil davomida	Respuyulika byudjet mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari	**Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov** Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev)

10.		To‘qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini **63 foizga** oshirish.	1. Viloyatda to‘qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 63 foizga o‘sishini ta’minlash. 2. Sun’iy tola ishlab chiqarish bo‘yicha loyihalarni shakllantirish. 3. Sohaga oid dunyodagi mashhur brendlar bilan hamkorlikda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash. 4. To‘qimachilik sanoatida ip kalavani qayta ishlashga ixtisoslashgan investitsiya loyihalarini manzilli ro‘yxatini shakllantirish va tarmoq jadvallarini ishlab chiqish. 5. Tarmoq jadvali asosida loyihani amalga oshirilishini monitoring qilib borish va yakunlash.	2024-yil davomida 2024-yil yanvar 2024-yil yanvar doimiy	Tashabbuskorlar mablag‘i, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, xorijiy va bank kreditlari	**Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov** Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Markaziy bank boshqarmasi(Sh.Do‘saliyev), tegishli boshqarma va tashkilotlar
11.		Investitsiyalarni jalb qilishni **880,5 mln. dollar**ga yetkazish.	1. Tuman (shahar)lar iqtisodiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilgan holda drayver tarmoqlarga investitsiyalarni keng jalb etish. 2. Strategik ahamiyatga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash.	2024-yil davomida	Tashabbuskorlar mablag‘lari, xorijiy investitsiyalar, tijorat banklari kreditlari	**Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov** Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar
12.		**735,8 mln dollar**xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.	1. Viloyatda 735,8 mln dollar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. 2. Loyihalarning tarmoq jadvallari ishlab chiqish hamda ijroga qaratish. 3. Qarorga kiritilgan loyihalarda amalga oshirilayotgan investisyalarni doimiy monitoringini olib borish. 4. Tarmoq jadvallarida belgilangan chora-tadbirlarning natijadorligini tahlil qilib borish, mavjud muammoli masalalarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish, viloyat hokimligi huzuridagi yig‘ilishlarda muhokama qilib borishni tashkil etish.	2024-yil davomida doimiy har chorak yakuni bilan	Xorijiy investorlar mablag‘i, xorijiykreditlar	**Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov** Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar

13.		Xorijiy davlatlarga tashriflarni amalga oshirish va savdo-iqtisodiy shartnomalarni yo‘lga qo‘yish hamda imzolash, buning hisobiga **3,0 mlrd. dollarlik** kelishuvlarga erishish. Shuningdek, viloyatda davlat investitsiya dasturi doirasida 2024-yilda **1,3 mlrd. dollar** qiymatidagi investitsiyalarni jalb qilish choralarini ko‘rish. Jumladan, mazkur dastur doirasida qiymati **340,3 mln. dollar**lik **26 ta** loyihalarini ishga tushirish.	**1.** Viloyatdagi investitsiya loyihalarini manzilli ro‘yxatini ishlab chiqish va tarmoq jadvallari tasdiqlash. **2.** Tarmoq jadvallarida belgilangan tartibda loyihalarni amalga oshirilishini monitoring qilib borish. **3.** 2024-yilda davlat investitsiya dasturi doirasida qiymati **340,3 mln. dollar**lik **26 ta** loyihalarini tarmoq jadvallarida belgilangan muddatda ishga tushirish. **4.** Loyihalarni amalga oshirilishi jarayonida yuzaga keladigan respublika darajasidagi muammolarni Hukumat komissiyasiga kiritish yo‘li orqali bartaraf etish choralarini ko‘rish.	2024-yil fevral 2024-yil davomida 2024-yil dekabr Har oy yakuni bilan	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kredit, mahalliy tadbirkorlar mablag‘lari To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kredit, mahalliy tadbirkorlar mablag‘lari	**Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov** Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Markaziy bank boshqarmasi (Sh.Do‘saliyev), shahar va tuman hokimliklari
14.		Mahalliy va xorijiy investorlarni viloyatga jalb qilish hisobiga qo‘shimcha xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish.	**1.** Viloyat hokimligi delegatsiyasining Xitoyga qilingan tashrifi yakunlari bilan erishilgan qariyb **1,3 mlrd dollar**lik investitsiya kelishuvlarini amalga oshirish choralarini ko‘rish. 2. Shahar va tumanlarda mavjud imkoniyatlari va salohiyatidan kelib chiqib, horijiy davlatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holda tashriflarni amalga oshirish. - Bunda, yo‘l xaritalarga kiritilgan istiqbolli investitsiya kelishuv va loyihalarini amalga oshirish. Misol uchun: Ryespublika bo‘yicha tumanlar ichida faqatgina Rishton tumani dunyoning **5ta** davlatning **6ta** shaharlari bilan **“Birodar shaharlar”** memorandumini imzolagan. 3. Farg‘ona viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy investorlar, kompaniyalar va diplomatik korpus vakillari bilan yuzma-yuz uchrashib, muzokaralar o‘tkazish va kelishuvlarga erishish. 4. Viloyatga xorijiy kredit liniyalarini keng jalb qilish maqsadida xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan, **Jahon banki, Landesbank, Germaniya taraqqiyot banki (KFW), ODDO, FAR** (Fransiya)va **Osiyo taraqqiyot banki** va boshqalar bilan yaqin aloqalar o‘rnatish.	2024-yil davomida 2024-yil davomida 2024-yil davomida 2024-yil davomida	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kredit, mahalliy tadbirkorlar mablag‘lari Xorijiy kredit mablag‘lari	**Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov** O‘zbekistonni xorijiy davlatlardagi elchixonalari,Markaziy bank boshqarmasi(Sh.Do‘saliyev), shahar va tuman hokimliklari

15.		Halqaro reyting agentliklarining barqaror baholash darajalarini olishda viloyatning jozibadorligini oshirish choralarini ko‘rish. Shu bilan birga viloyatning yangi brendlarini yaratishda samarali ishlashni ta’minlash.	**1.**Ijobiy xalqaro reyting ko‘rsatkichiga erishishda viloyatda faol o‘zlashtirilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi va jadal tashqi savdo dinamikasini tahlil qilib borish. **2.**Dunyoning eng nufuzli “**S&P Global Rating**” (AQSH) xalqaro reyting agentligi xulosalarini doimiy o‘rganib borish va hamkorlik aloqalarini ijobiy saqlash choralarini ko‘rish. **3.** Hozirda viloyatga jalb etilgan **9 ta** xorijiy brendlar asosida ishlab chiqarish hajmini kengaytirish choralarini ko‘rish. Jumaladan, mashinasozlik, qurilish, to‘qimachilik, mineral o‘g‘it mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalarida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish. **4.**Fransiya, Germaniya, Singapur, Xitoy, Yaponiya davlatlarining tekstil, charm va qurilish brendlarini O‘zbekistonga jalb etish bo‘yicha muzokaralar olib borish. Jumladan, **Andritz, Kiabi** brendi ostida to‘qimachilik mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha Fransiya davlati kompaniyasi bilan muzokaralarda kelishuvlarga erishish choralarini ko‘rish.	2024-yil davomida		**Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov** O‘zbekistonni xorijiy davlatlardagi elchixonalari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Markaziy bank boshqarmasi(Sh.Do‘saliyev), shahar va tuman hokimliklari

16.		Eksport salohiyatini oshirish va tashqi savdo geografiyasini kengaytirish hamda yangi bozorlarni o‘zlashtirish. Jumladan, **Evropa, MDH, Arab** mamlakatlari, **Sharqiy Osiyo** va **Xitoy** davlatlari bilan yirik elektron savdo platformalari orqali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Buning hisobiga, hudud va tarmoqlarning eksport salohiyatini oshirish. Bunda, 2024-yil uchun **1,1 mlrd. dollarlik** mahsulotlar eksportini tashqi bozorlarga chiqarish choralarini ko‘rish.	1. Viloyatning tashqi savdo bozorini jadal rivojlantirish hisobiga yillik o‘sish hajmini **150** foizga chiqarishni ta’minlash. **2.** Mahsulotlar eksporti hajmini oshirish maqsadida eksportchi korxonalarga “Eksportni rag‘batlantirish agentligi”dan transport harajatlari qoplab berishda amaliy yordamlar ko‘rsatish. 3. Eksportyor korxonalarga Xalqaro standartlash va sertifikatlash tizimlarini joriy etishga moliyaviy yordam ko‘rsatishda ko‘maklashish. 4. Korxonalarni halqaror **ko‘rgazma-yarmarka** tadbirlarida ishtirok etishlari uchun moliyaviy ko‘mak berish. 5. “**Eksportchibay**” tizimi orqali kichik eksportchilarni o‘rta eksportchilarga, o‘rta eksportchilarni yirik eksportchilarga aylantirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rishni davom ettirish. Bunda, korxonalar faoliyatini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirayotgan loyihalarida mahsulot ishlab chiqarish hisobiga qo‘shimcha eksport hajmlarini yaratish choralarini ko‘rish. 6. Korxonalarni eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda **seminar treninglar** tashkil etish.	2024-yil davomida	Korxonalarni mablag‘lari Eksportni rag‘batlantirish agentligi mablag‘lari Eksportni rag‘batlantirish agentligi mablag‘lari Eksportni rag‘batlantirish agentligi mablag‘lari	**Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov** O‘zbekistonni xorijiy davlatlardagi elchixonalari, Bojxona boshqarmasi (I.Azimov), Soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari
17.		Viloyatda eksportga **260 ta** yangi korxonalarni jalb qilish bo‘yicha choralarni ko‘rish.	1. Viloyatdagi sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan eksportbop hamda chet el talablariga javob beradigan mahsulotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirish borish. 2. Eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni sifatli tijorat takliflarini shakllantirish. 3. Xorijiy hamkor topish maqsadida tijorat takliflarini Eksportni rag‘batlantirish agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi elchixonalariga yuborish.	2024-yil davomida 2024-yil davomida 2024-yil davomida	Eksportni rag‘batlantirish agentligi mablag‘lari	**Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov** Statistika boshqarmasi (Sh.Mamadaliyev), Soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov), Texnik jihatdan tartibga solishni muvofiqlashtirish departamenti viloyat bo‘limi (S.Niyozov), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari

18.		Viloyatda 2024-yilda hududiy dasturlar doirasida *(davlat investitsiya dasturidan tashqari)***829 mln. dollarlik** mahalliy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga **900** dan ortiq loyihalarni ishga tushirish. Buning hisobiga **19,2 ming nafar** yangi ish o‘rinlarini yaratish.	1. Viloyatdagi “Loyiha guruhlari” tomonidan investitsiya loyihalari ishlab chiqish va tarmoq jadvallari shakllantirish. Bunda, loyihalar viloyat hududlarida tashkil qilinayotgan maxsus “texnopark”lar, KSZlar va “Qo‘qon” EIZning yangi qismida, shuningdek, 4, 5-toifadagi hududlarda joylashtirish. 2. Tarmoq jadvallarida belgilangan tartibda loyihalarni amalga oshirilishini monitoring qilib borish. 3. Viloyatda 2024-yilda hududiy dasturlar doirasida *(davlat investitsiya dasturidan tashqari)* **829 mln. dollarlik** mahalliy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga **900** dan ortiq loyihalarni ishga tushirish. Buning hisobiga **19,2 ming nafar** yangi ish o‘rinlarini yaratish.	2024-yil fevral 2024-yil davomida 2024-yil davomida 2024-yil davomida	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kredit, mahalliy tadbirkorlar mablag‘lari	**Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov** Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Markaziy bank boshqarmasi(Sh.Do‘saliyev), shahar va tuman hokimliklari
51-maqsad: “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish						
